PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

MADANIY TURIZM TARAQQIYOTIDA “MADANIYAT MEHMONXONASI” MODELINING O‘ZIGA XOSLIGI

Sultanova Sevara Akmal qizi
“Madaniyat va san’at menejmenti”
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyat mehmonxonasi madaniy klasteri investitsiya loyihasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, loyiha konsepsiyasining shakllanish omillari, uning hududiy madaniy infratuzilmani rivojlantirishdagi o‘rni hamda madaniy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: Madaniyat mehmonxonasi, madaniy klaster, madaniy turizm, investitsiya loyihasi, madaniy xizmatlar bozori, diversifikatsiya qilish, madaniyat va mehmondo‘stlik industriyasi integratsiyasi, investor, subsidiya, madaniy xizmatlar eksporti, kreativ iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the cultural hotel cultural cluster investment project. Also, the factors of formation of the project concept, its role in the development of regional cultural infrastructure, and the possibilities of diversifying the cultural services market are studied based on scientific approaches.
Keywords: Cultural hotel, cultural cluster, cultural tourism, investment project, cultural services market, diversification, integration of culture and hospitality industry, investor, subsidy, export of cultural services, creative economy.

Barchamizga ma’lumki, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida iqtisodiyot sohalari bilan bir qatorda madaniyat, san’at va turizm sohalarining o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining “Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son qarori[1]ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va turizm sohalarining o‘zaro integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan innovatsion tashabbus – “Madaniyat mehmonxonasi” madaniy klasteri investitsiya loyihasining nazariy va amaliy jihatlari haqida so‘z boradi. Mazkur loyiha konsepsiyasining shakllanish omillari, uning hududiy madaniy infratuzilmani rivojlantirishdagi o‘rni hamda madaniy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, madaniyat va mehmondo‘stlik industriyasining integratsiyasi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy samaradorlik, yangi ish o‘rinlari yaratish, investitsiyalar oqimini jalb etish va hududlarning turistik jozibadorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish ushbu sohaning rivojiga katta hissa qo‘shadi.

So‘nggi yillarda mamlakatda madaniy turizmning ulushi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Shu nuqtai nazardan, “Madaniyat mehmonxonasi” modeli nafaqat mehmonlarni joylashtirish vositasi, balki milliy madaniy meros, xalq amaliy san’ati, folklor va ijodiy industriya mahsulotlarini targ‘ib qiluvchi ko‘p funksiyali madaniy makon sifatida ahamiyat kasb etadi. Mazkur xujjatda investitsiya loyihasi doirasida investorlarni tanlash mezonlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda subsidiya ajratish tartiblarining madaniyat iqtisodiyoti rivojiga ta’siri baholanadi.

“Madaniyat mehmonxonasi” loyihasi hududlarda madaniy klasterlarni shakllantirish, madaniy xizmatlar eksportini kengaytirish va kreativ iqtisodiyotning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur modelning amaliyotga joriy etilishi madaniyat sohasining iqtisodiy salohiyatini

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining “Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son qarori.

oshirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarni saqlash va ommalashtirishning yangi mexanizmlarini yaratadi.

XXI asrda iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy omillari qatorida madaniyat va kreativ industriyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniy meros, san'at va ijodiy faoliyat nafaqat ma'naviy taraqqiyot omili, balki iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish va investitsion jozibadorlikni ta'minlovchi muhim resurslardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda madaniyat sohasi turizm, xizmatlar sektori va tadbirkorlik bilan integratsiyalashgan holda yangi iqtisodiy qiymat yaratmoqda. Xususan, xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, kreativ iqtisodiyot dunyo yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismini shakllantirib, millionlab ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bois madaniyatni iqtisodiy rivojlanishning faol subektiga aylantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasini modernizatsiya qilish, madaniy xizmatlar bozorini kengaytirish hamda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda tarixiy-madaniy meros obektlari, muzeylar, teatrlar, madaniyat markazlari va xalq amaliy san'ati markazlarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish bilan bir qatorda, ularni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv madaniyat sohasining budjet mablag'lariga qaramligini kamaytirish, qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish va investitsion faollikni oshirish zaruratidan kelib chiqadi.

Shu o'rinda, "madaniyat mehmonxonasi" degan tushunchaga izoh berib o'tsak... "Madaniyat mehmonxonasi" madaniy klasteri investitsiya loyihasi - madaniyat va mehmondo'stlik industriyasining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadigan innovatsion model bo'lib, unda mehmonxona faoliyati madaniy xizmatlar, ijodiy mahsulotlar va milliy an'analarni targ'ib etish bilan chambarchas bog'lanadi[2]. Mazkur yondashuv mehmonxona infratuzilmasini oddiy turar joy funksiyasidan chiqarib, uni madaniy kommunikatsiya, ijodiy almashinuv va madaniy iste'mol markaziga aylantirish imkonini beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida turistlarning ehtiyojlari ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Endilikda sayyohlar nafaqat qulay yashash sharoitini, balki hududning madaniy muhiti, milliy an'analari va o'ziga xos tajribasini his qilish imkoniyatini ham izlamoqda. Shu jihatdan qaralganda, "Madaniyat mehmonxonasi" loyihasi milliy madaniy merosni iqtisodiy resurs sifatida namoyon etishning yangi mexanizmini taklif qiladi. Loyiha doirasida hunarmandchilik mahsulotlari, folklor dasturlari, teatr va konsert tomoshalari, ijodiy ustaxonalar hamda milliy gastronomiya elementlarini yagona tizimga birlashtirish orqali madaniy xizmatlarning qo'shimcha qiymatini oshirish mumkin.

Hududlarda madaniyat va turizm infratuzilmasining integratsiyalashuvi mahalliy aholi bandligini ta'minlash, kichik biznes subektlarini qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, madaniy klasterlar faoliyatining rivojlanishi xizmatlar sektorining kengayishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli "Madaniyat mehmonxonasi" loyihasini madaniyat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan tadqiq etish, uning institutsional va iqtisodiy imkoniyatlarini baholash zamonaviy ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Madaniyat iqtisodiyoti, madaniy turizm hamda madaniy klasterlar faoliyatini o'rganish masalalari so'nggi yillarda O'zbekiston ilmiy maktabida alohida tadqiqot yo'nalishiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti olimlari tomonidan madaniyat muassasalarining zamonaviy boshqaruvi, madaniy xizmatlar bozorini rivojlantirish va madaniyatning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rniga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.Jumladan,

[2] Internet ma'lumotlaridan foydalanildi.https://www.spot.uz/oz/2026/04/24/hotel-of-culture/

madaniyat va iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari B. Samiyev, K. Norbadalova[3], N. Karimova[4], M.Amriddinova[5], J.Nishonova[6], S.Pardaboyeva, G.Saparbayeva[7] kabi izlanuvchan yosh tadqiqodchilarning ilmiy maqolalari, ilmiy ishlarida ham uchraydi. Ular madaniyatni milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholab, davlat tomonidan madaniyat sohasiga qaratilayotgan e’tiborning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini ko‘rsatadilar. Ushbu qarashlar madaniy klasterlarni tashkil etishning institutsional asoslarini izohlashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Madaniy meros va turizm integratsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda, masalan, M.Amiriddinovaning ilmiy izlanishlarida madaniy meros turizmi O‘zbekiston iqtisodiyotining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanib, tarixiy-madaniy obektlarning turizm salohiyatini oshirish orqali hududiy rivojlanishni jadallashtirish mumkinligi qayd etilgan[8]. N. Karimova esa festivallar va madaniy tadbirlarning turizm rivojiga ta’siri tahlil qilinib, madaniy voqealar hududlarning investitsion jozibadorligini oshiruvchi omil sifatida talqin etilgan.[9].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, madaniyat va turizmning integratsiyalashgan modeli, madaniy klasterlar faoliyati hamda kreativ iqtisodiyot masalalari alohida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, “Madaniyat mehmonxonasi” investitsiya loyihasining madaniy-iqtisodiy mohiyati, uning hududiy rivojlanishga ta’siri va boshqaruv mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekistonda turizm va madaniyat sohalarining rivojlanish dinamikasi, madaniy tadbirlar soni, turistik xizmatlar hajmi hamda investitsion faollik ko‘rsatkichlari, statistik ma’lumotlarning tahlili, madaniyat va turizm integratsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash imkonini beradi. “huquqiy asoslarini aniqlashga xizmat qildi.

Manbalardan shuni bilish mumkinki, O‘zbekistonda madaniy turizmning rivojlanishi uchun zarur resurslar yetarli darajada shakllangan. Respublikada sakkiz mingdan ortiq moddiy madaniy meros obektlari mavjud bo‘lib, ularning muayyan qismi xalqaro turizm marshrutlariga kiritilgan[10]. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining rivojlanishi va hududlarda yangi turistik mahsulotlarni yaratish ehtiyoji madaniyat va mehmondo‘stlik xizmatlarini integratsiyalashgan holda tashkil etishni talab qilmoqda. Mazkur omil “Madaniyat mehmonxonasi” konsepsiyasining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “Madaniyat mehmonxonasi” konsepsiyasining asosiy ustunligi uning ko‘p funksiyali model ekanligida namoyon bo‘ladi. An’anaviy mehmonxonalar asosan turar joy va servis xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan bo‘lsa, mazkur model madaniy mahsulot yaratish, namoyish etish va iste’mol qilish jarayonlarini yagona makonda birlashtiradi. Bunda madaniyat muassasalari qo‘shimcha daromad manbalariga ega bo‘ladi, turistlar esa hududning madaniy muhitini chuqurroq his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. So‘nggi yillarda mamlakatda turizm oqimining ortishi, madaniy meros obektlariga qiziqishning kuchayishi hamda kreativ industriya subektlari sonining ko‘payishi “Madaniyat mehmonxonasi” kabi innovatsion loyihalarni joriy etishni taqozo etadi.

---

[3] Samiyev B.N., Norbadalova K.I. Madaniyat jamiyat taraqqiyoti manbai, 2023.
[4] Karimova N. O‘zbekistonda festivallarning ravnaq topishi, Oriental Art and Culture, 2026
[5] Amiriddinova M. O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy meros turizmining rolini o‘rganish, 2026.
[6] Nishonova J. Ijtimoiy-gumanitar fanlar, san’at va madaniyat: muammolar va rivojlanish istiqbollari.
[7] Pardaboyeva S.B., Saparbayeva G.A. Methods of Promoting National Values Through Cultural Institutions and Their Role in Developing the Tourism Industry.
[8] Amiriddinova M. O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy meros turizmining rolini o‘rganish, 2026.
[9] Karimova N. O‘zbekistonda festivallarning ravnaq topishi, Oriental Art and Culture, 2026.
[10]O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son qarori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining “Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son qarori.
2. Samiyev B.N., Norbadalova K.I. Madaniyat jamiyat taraqqiyoti manbai, 2023.
3. Karimova N. O‘zbekistonda festivallarning ravnaq topishi, Oriental Art and Culture, 2026
4. Amiriddinova M. O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy meros turizmining rolini o‘rganish, 2026.
5. Nishonova J. Ijtimoiy-gumanitar fanlar, san’at va madaniyat: muammolar va rivojlanish istiqbollari.
6. Pardaboyeva S.B., Saparbayeva G.A. Methods of Promoting National Values Through Cultural Institutions and Their Role in Developing the Tourism Industry.
7. Amiriddinova M. O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy meros turizmining rolini o‘rganish, 2026.
8. Karimova N. O‘zbekistonda festivallarning ravnaq topishi, Oriental Art and Culture, 2026.